

Zoologiya fani istiqbollariга bag'ishlangan 2 kunlik konferensiya o'tkazildi

O'zR FA Zoologiya instituti tomonidan 2020-yil 15-16-oktyabr kunlari "O'zbekiston zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari" mavzusida II-Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi. Konferensiya yalpi majlisini O'zR FA Zoologiya instituti direktori B.R. Xolmatov kirish so'zi bilan ochib berdi.

Yalpi majlisdan so'ng konferensiya umurtqasiz hayvonlar faunasining sistematikasi va zamonaviy holati, parazitizmning biologik asoslari, biozararlanishning dolzarb muammolari, gidrobiontlar ekologiyasi, ixtiofauna genofondi va baliq resurslarini baholash, quruqlik umurtqali hayvonlari faunasining zamonaviy holati, ularning resurslaridan oqilona foydalanish masalalari, O'zbekistondagi kamyob, yo'qolish arafasida turgan, kam o'rganilgan hayvonlar va ularni saqlash masalalari yo'nalishlarida ma'ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.



Молекуляр таксономияси бўйича Зоология институтидаги тадқиқотлар

- **ЗИ Молекуляр зоология лабораторияси** ходимлари турли гуруҳ ҳайвонлари, жумладан туёқли ҳайвонлар паразит гельминтлари ва уларнинг оралик хўжайини – қуруқлик моллюскаларининг тур таркиби, морфологик ва молекуляр идентификацияси, систематикаси ва филогенетик алоқаларини ўрганиш бўйича илмий тадқиқотларни олиб боришмоқда.
- Ҳозирги кунда нематодаларнинг Protostrongylidae (7), Metastrongylidae (3), Dictyocaulidae (2), Trichostrongylidae (14) ва Setaridae (2) оилаларига тегишли **28та** тури, трематодаларни Dicrocoeliidae (1) ва Brachylamidae (1) оиласига мансуб **2** тури; қориноёқли моллюскаларни Buliminidae (4), Hygromiidae (3), Agriolimacidae (1), Parmacellidae (1) ва Ariophantidae (1) оиласини **10** тури, **жами 40 та тур** бўйича рДНК ва мтДНК генларининг **80та** намуналари сиквенс қилинган ва биоинформатик таҳлил қилинган, улар ҳалқаро Генбанк (NCBI, Genbank) базасига жойлаштирилган.
- Ўрганилган нематодаларни **11та** тури ва қорин оёқли моллюскаларни **8** тури -